



## PAZANDACHILIK NOMLARINING TIL SISTEMASIDAGI O'RNI VA MODDIY MADANIYAT VOQELIGI SIFATIDA

**Samandarova Barno**

**Akbarjon Xasanov**

Namangan davlat universiteti Lingvistika (O'zbek tili) 2-kurs  
magistranti

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrası dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

E-mail: samandarovabarno389@gmail.com

Tel: +998996095282

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8005530>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 03-June 2023 yil

### KEY WORDS

*leksik-semantik guruhlar, lingvokulturtema, paradigmatic munosabat, frazeologik birliklar, leksik tarkib, etimologiya, semantika*

### ABSTRACT

*Maqolada pazandachilik nomlari, ularning leksik-semantik guruhlari haqida ma'lumot beriladi. Leksik-semantik guruhlarni aniqlash barobarida pazandachilik nomlari bilan bog'liq bo'lgan bir qancha lingvokulturtomalarga izoh berilib, ularning lingvokulturologik jihatlari izohlab o'tiladi.*

Tashqi olam narsa va hodisalarini lingvistik o'zlashtirish nafaqat ularni nomlash, balki tasniflashga intilishdan ham iboratdir. Tilning lug'at tarkibining tuzilishi turli sabablarga ko'ra sodir bo'ladi. Lug'aviy birliklar xuddi boshqa sathlardagidek, til tizimida ma'lum tartibdagi guruhlarni tashkil qiladilar va ma'nolari jihatidan o'zaro paradigmatic munosabatlarda bo'ladilar. Bunday paradigmatic dasturlarni " mavzuviy guruhlar" yoki "leksik-semantik" guruhlar deb ataydilar.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslikda lingvokulturologiyaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligini ham ta'kidlanadi. G.Boqiyeva, D.Ashurova, A.M.Bushuy, Sh.Safarov, G.Sh.Ataxanova, A.Mamatov, O'.Yusupov, J.Yoqubov, A.Ziyayev, D.Xudoyberganova, D.Djumanova, N.Yusupov, S.Isamammedova, D.Tosheva, N.A.To'xtaxo'jayeva kabi tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiq. Maqolada ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yuqoridagi olimlarning asarlaridan foydalanilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pazandachilik nomlarining til sistemasidagi o'rni va ularning moddiy madaniyat voqeligi sifatidagi jihatlari muhokama qilinadi. Uning frazeologik birliklar tarkibidagi o'rni va hamiyati hamda ularning lingvokulturologik jihatlari tavsif beriladi. Shu o'rinda frazeologik lug'at tarkibidan topilgan pazandachilik bilan bog'liq nomlar izohlanadi.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

So'zlar turli leksik-semantik guruhlariga ajratilayotganda umumiy semantik xususiyatlariga asoslaniladi, ya'ni semantik umumiylikka ega bo'ladi. Biroq ma'lum leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi so'zlar o'z o'rnida o'zaro farqlanadi, qarama-qarshilikka ega bo'ladi. Leksik-semantik guruhlar ham o'z bosqichlariga ega, ya'ni o'z o'rnida u ham ichki guruhlariga bo'linishini ko'rib o'tdik. Alohida leksik-semantik guruhlarining tizimli aloqalarini tavsiflash tilning umumiy lug'at tarkibini tizimli tashkil etishni bilishning zaruriy bosqichi sanaladi.

Semantik guruh ichida so'zlar faqat kategorik sema bilan emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan bir xil differensial sema bilan birlashtirilgan kichik guruhlarini (kichik paradigmalarini) ajratish mumkin. Bizga tadqiqot obyekti sifatida berilgan pazandachilik nomlarini quyidagicha leksik-semantik guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Pazandachilik mahsulotlari
2. Shirinlik nomlari
3. Taom nomlari
4. Ichimliklar nomlari
5. Pazandachilik jihozlari nomlari

Yuqorida keltirilgan leksik-semantik guruhlar o'z navbatida kichik guruhlariga bo'linadi. Xususan, pazandachilik mahsulotlari nomlarini ham biz quyidagicha guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

a) sabzavot nomlari (sabzi, piyoz, kartoshka, sholg'om, turp, lavlagi, rediska, karam, bulg'or qalampiri, baqlajon)

b) meva nomlari ham o'z o'rnida sitrus bo'lmagan (olma, anor, behi, gilos, uzum, nok va b.) hamda sitrus (banan, apelsin, ananas, limon, kivi, greypfrut) mevalar nomlariga bo'linadi.

d) tuxum va go'sht mahsulotlari nomlari ham o'z o'rnida parranda va ilvasin go'sht nomlariga (tovuq go'shti, o'rdak go'shti, g'oz go'shti, kurka go'shti, bedana go'shti, kaklik go'shti va boshqalar), uy hayvonlari go'shtlari nomlari (mol go'shti, qo'y go'shti, quyon go'shti, echki go'shti, ot go'shti kabilar), shuningdek go'sht mahsulotlari (qiyma, kolbasa, sosiska kabilar) hamda tuxum (tovuq tuxumi, o'rdak tuxumi, g'oz tuxumi, kurka tuxumi, bedana tuxumi va b.)ga bo'linadi

e) un va un mahsulotlari nomlari (bug'doy uni, arpa uni, konditer uni kabilar)

f) yog' mahsulotlari nomlari (paxta yog'i, zaytun yog'i, sedana yog'i, kungaboqar yog'i, zig'ir yog'i kabilar)

g) ziravor nomlari (zira, sedana, kurkuma, murch, qora murch, kashnich, ukrop, lavr yaprog'i va boshqalar)

i) yarim tayyor mahsulotlar : tayyor krem, tayyor quymoq

j) donli mahsulotlar (mosh, no'xat, perlovka)

k) qo'shimcha mahsulotlar: kakao, kraxmal, oshirgich, soda,

Tilni va madaniyatni o'rganishda lingvoolkashunoslik jihatdan yondashuv doirasida kulturema tushunchasi ishlab chiqilgan. V.G.Gak madaniyatni ma'lum belgilar, ya'ni kulturemalar majmui deb hisoblaydi va quyidagi fikrlarni keltiradi: "Tilga oid ifodaga ega bo'lgan kulturemalar ba'zi bir realiyalarni - predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe'l-atvor faktini va h.k.larni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma'lum elementi bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar"[1, 89-bet]

"Lingvokulturema" termini esa V.V.Vorobyev tomonidan taklif etilgan. Bu terminning mazmuniga olim quyidagi fikrni joylagan: "Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik

sifatida lingvistik va ekstralingvistik (tushunchaga oid yoki predmetga oid) mazmunlarning dialektik birligidan iborat"[1, 82-bet].

Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo'lib, bu yaxlitlik o'z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmuni qamrab oladi. Dialektik aloqa obyektini anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o'xshashliginin taqozo etadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi, chunki turg'un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog'liqdir. Ular ko'p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllangan. Shu sababli turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o'rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Xususan, pazandachilik nomlari bilan bog'liq ko'pgina frazeologik lingvokulturtemalarni aniqladik va ularni keltirib o'tamiz:

1. Anqoning **tuxumi** yoki Anqoning urug'i
2. **Arpasini** xom o'rmoq
3. Boshida **danak** chaqmoq yoki boshida **yong'oq** chaqmoq.
4. **Yog'** tushsa yalagudek
5. **Zig'ir yog'**day ko'ngliga urmoq yoki ko'ngliga **zig'ir moy**day urmoq
6. **Zuvalasi** pishiq
7. Ilonning **yog'**ini yalagan
8. Ko'zi **mosh**dek ochildi
9. Ko'zini **yog'** bosdi
10. Ko'zining **yog'**ini yemoq
11. Ko'zini **yog'** bosgan yoki ko'zini **shira** bosgan
12. Miyasida **danak** chaqmoq
13. Ona **suti** og'ziga keldi
14. Og'ziga **tolqon** soldi
15. Og'ziga **qatiq** ivitmoq
16. Og'zidan ona **suti** ketmagan.
17. Sabr **kosasi** to'lib toshdi.
18. **Sirkasi suv** ko'tarmaydi.
19. **Tarvuzi** qo'ltig'idan tushdi
20. **Hamirning** uchidan **patir**
21. **Chuchvarani** xom sanamoq
22. O'z **yog'**iga o'zi qovurilmoq
23. Qo'ynini puch **yong'oq** bilan to'ldirmoq
24. **Hamirdan** qil sug'urganday

Insonlarning ijtimoiy hayotini ifodalab kelishi, kasb-hunarni har bir tilning ko'plab frazeologizmlari o'zining milliy xususiyati bilan ajralib turadi. Frazeologizmlar milliy madaniyatni o'z prototiplari bilan aks ettirishini, negaki frazeologik birlik bo'lib qolgan erkin so'z birikmalari ma'lum urf-odatlarini, an'analarni, turmush va madaniyatning tafsilotlarini,

tarixiy voqealarni va boshqa ko'plab narsa va hodisalarni tasvirlashini yuqoridagi pazandachilik nomlari ishtirok etgan misollar vositasida ham ko'rish mumkin. Har bir tilning frazeologizmlari ma'nosining nozikliklarida, uning milliy obrazligida, leksik tarkibida o'zgachalik kasb etadi. Bu o'sha xalqning turmuish tarsi, kasb-kori bilan ham bevosita bog'liq tarzda rivoj topadi.

Lingvokulturemalar o'z ifodasida rang-barangdir - ular so'z bilan, so'z birikmasi bilan, matn abzasi bilan, she'r bilan va hatto bir necha uzunlikdagi matn bilan berilishi mumkin. Bu birlik o'z mazmuniga ko'ra so'zga qaraganda ancha kengroq. So'z biror tushuncha bilan o'zaro bog'lanishda bo'lsa, lingvokulturema uning mazmunini biror narsaga qiyos tarzida ochib beradi. Biz ko'rib o'tgan pazandachilik nomlari ishtirok etgan frazeologik lingvokulturemalar ham o'zbek xalqining azaldan qanday hayot kechirganligi, turmush tarzida qanday predmet yoki hislatlar asosiy o'rinda turganligidan dalolat beradi. Ular tarkibida yog', suv, tuxum, hamir, danak, sut, qatiq, kosa, zuvala, zig'ir yog' kabi pazandachilik va u bilan bog'liq so'zlar ishtirok etgan. Mazkur so'zlarga e'tibor qaratsak bu so'zlar azaldan o'zbek xalqida pazandachilikda ishlatilgan asosiy mahsulotlar sanaladi. Shu bilan birgalikda ular o'zbek milliy taomlari yoki ularning tayyorlanishi bo'yicha ham ba'zi ma'lumotlarni berishi mumkin. Xususan, "Og'ziga **tolqon** soldi" frazemasi orqali biz tolqonni yeyish va u bilan bog'liq tasavvurga ega bo'lamiz. Yoki "Og'ziga **qatiq** ivitmoq" iborasi orqali esa qatiq ivitishning o'ziga xos jihati, ya'ni uni qimirlatmaslik kerakligini bilib olamiz. Frazemalar ko'chma ma'noda kelishini inobatga olgan holda, so'zning asl ma'nosining qaysidir xususiyati ularga ko'chadi. Bu iborada ham qatiq ivitmoq gapi "umuman gapirmaslik" ma'nosini bermoqda.

"**Chuchvarani** xom sanamoq" iborasi orqali esa biror ish haqida erta xulosaga kelish ma'nosi anglashiladi. "O'z **yog'**iga o'zi qovurilmoq" iborasi esa ruhan ezilmoq ma'nosini beradi. Bular so'zlar tashqi tarafdin olganda pazandachilik bilan bog'liqday ko'rinsa-da, ular ma'noviy jihatdan ma'lum bir vaziyatni anglatish uchun ishlatiladi.

## **XULOSALAR**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, pazandachilik nomlari bir qancha leksik-semantik guruhlarini tashkil etishi bilan til sistemasida alohida tadqiqotni talab etadi. Pazandachilik nomlari til sistemasida o'ziga xos o'ringa ega. Ular frazeologik, paremiologik birliklar tarkibida uchraydi va xalqning o'tmishi, turmush tarzi, kasb-kori va qadriyatlarining bir parchasi sifatida nafaqat adabiyotda, balki tilshunoslikda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, frazeologik lingvokulturemalar tarkibida madaniy tushunchaga oid so'zning tildan tashqari mazmuni va keyingi ma'nosi ishtirok etadi va u ma'noni anglash insondan zakiylikni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatov A. Zamonaviy linvistika.- Toshkent.: "Tafakkur avlodlari", 2020. 82-bet
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. - Toshkent.: 1991. 56-bet
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.- Toshkent.: "O'qituvchi", 1978. 23-309-betlar
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent.: "Fan va texnologiya", - 2009. 128-bet